IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 MAY 2026

MA’MURIY ISHLARNI KO‘RISHDA SUD QARORLARINING IJROSINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Ergashev Shohrux
Xurramova Aziza
Ilmiy rahbar: **Yangiboyev Norquvvat**
Termiz davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19976934

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud hujjatlarining ijrosini ta’minlashning protsessual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni moddalari qiyosiy o‘rganilib, tizimdagi muammolar statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.
Kalit so‘zlar: Ma’muriy sud ishlarini yuritish, sud hujjatlari ijrosi, ijro varaqasi, sud nazorati, majburiy ijro choralari, ma’muriy organ, mansabdor shaxsning javobgarligi, Astrant instituti.
Аннотация: В данной статье анализируются процессуальные основы обеспечения исполнения судебных актов в административном судопроизводстве. В ходе исследования проведено сравнительное изучение норм Кодекса Республики Узбекистан об административном судопроизводстве и Закона Республики Узбекистан «Об исполнении судебных актов и актов других органов», а также на основе статистических данных выявлены существующие проблемы в системе. Кроме того, выдвинуты предложения по совершенствованию национального законодательства на основе опыта таких развитых стран, как Германия и Франция.
Ключевые слова: Административное судопроизводство, исполнение судебных актов, исполнительный лист, судебный контроль, меры принудительного исполнения, административный орган, ответственность должностного лица, институт Астрант.

Abstract: This article analyzes the procedural framework for ensuring the enforcement of judicial acts in administrative litigation. During the research, the provisions of the Code of Administrative Court Procedure of the Republic of Uzbekistan and the Law of the Republic of Uzbekistan "On Enforcement of Judicial Acts and Acts of Other Organs" were studied comparatively, and existing problems in the system were identified based on statistical data. Furthermore, proposals for improving national legislation were put forward based on the experience of developed countries such as Germany and France.
Keywords: Administrative court procedure, enforcement of judicial acts, writ of execution, judicial control, compulsory enforcement measures, administrative body, liability of public officials, Astraint institute.

Kirish

Demokratik jamiyatda ma’muriy sudlov tizimining samaradorligi nafaqat sud jarayonining adolatliligi, balki sud tomonidan qabul qilingan qarorning amalda qanchalik tez va to‘liq ijro etilishi bilan o‘lchanadi. Fuqaro davlat organi ustidan sudda g‘alaba qozongan taqdirda ham, agar ijro mexanizmi ishlamasa, sud himoyasi o‘z mazmunini yo‘qotadi. Shu sababli, ma’muriy sud hujjatlari ijrosining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning (MSIYutK) 28-bobi bevosita sud hujjatlarining ijrosini ta’minlashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ijro mexanizmining protsessual asoslari belgilangan. Xususan, 276-moddaga muvofiq, sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach ijroga qaratilishi majburiyligi qat’iy belgilab qo‘yilgan.[1] Ushbu normaning ahamiyati shundaki, u ma’muriy organlar va mansabdor shaxslar uchun sud qarorini ixtiyoriy ijro etish muddatini — bir oy etib belgilaydi. Bu muddat ma’muriy huquqning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, ya’ni davlat organi sud qarorini bajarishi uchun unga yetarli va aniq vaqt beriladi.

Shuni ta’kidlash joizki, pul mablag‘larini undirish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar bo‘yicha sud qarorining ijrosi hal qiluv qarori asosida, pul mablag‘larini majburiy undirish bo‘yicha esa ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi. Bu yerda qonun chiqaruvchi protsessual hujjatlarni ikki toifaga ajratgan. MSIYutKning 277-moddasida ijro varaqasiga undiruvchining majburiy tartibda ijro ettirish huquqini tasdiqlovchi asosiy hujjat sifatida ta’rif berilgan bo‘lib, uning mazmuni va berish tartibi 278-279-moddalar bilan tartibga solinadi.[2]

Ma’muriy sud qarorlari ijrosini ta’minlashda eng samarali, ammo amaliyotda ko‘p muammolarga duch kelayotgan vosita — bu sud jarimalari hisoblanadi. MSIYutK 276-moddasining to‘rtinchi qismiga ko‘ra, sud hujjati ijro etilmagan taqdirda, sud tomonidan sud jarimasi solinadi va ijro uchun bir oydan oshmaydigan takroriy muddat beriladi.[3] Biroq, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda bir martalik jarima miqdori davlat organi mansabdor shaxsini sud qarorini to‘liq va sifatli ijro etishga majburlash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Shuningdek, protsessual qonunchilikda "sud hujjatining qaytarma ijrosi" (284-285-moddalar) instituti ham muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizm ma’muriy sudlarda adolat muvozanatini saqlashga xizmat qiladi: agar ijro etilgan qaror keyinchalik bekor qilinsa, arizachining foydasiga undirilgan barcha narsalar javobgarga (davlat organiga) qaytarib berilishi shart.[4] Bu norma sud xatolari natijasida davlat byudjetiga yoki ommaviy manfaatlarga yetkazilgan zararni qoplashning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud qarori qabul qilinishi bilan ish yakuniga yetmaydi; uning amaldagi ijrosi Majburiy ijro byurosi (MIB) organlari tomonidan ta’minlanadi. Bu jarayon davlat organining ommaviy vakolatlaridan jabr ko‘rgan shaxs uchun davlatning huquqiy himoyasini amalda his qilishning eng so‘nggi va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Sud hokimiyatining nufuzi va xalqning sudga bo‘lgan ishonchi aynan shu ijro intizomiga bevosita bog‘liqdir. Bu borada milliy qonunchilikda ham nafaqat protsessual tartib-taomillarni, balki ijro jarayonida yuzaga keladigan murakkab huquqiy munosabatlarni hamda davlat organlarining sud irodasiga bo‘ysunishini kafolatlovchi juda aniq va qat’iy mexanizmlar belgilangan bo‘lib, xususan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida"gi Qonunning 23-moddasiga binoan, davlat ijrochisi ijro hujjatini olgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqarishi shart.[5] Bu yerda qonun chiqaruvchi ma’muriy organlar va mansabdor shaxslarga sud qarorini ixtiyoriy bajarish uchun 15 kungacha

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 276-modda. // Lex.uz elektron ma’lumotlar bazasi.

[2] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 276-modda 2-qism.

[3] Xudayberdiyev A.K. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud hujjatlari ijrosining protsessual kafolatlari. // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2025. №4. – B. 12-15.

[4] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. 284-modda.

[5] O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni. 23-modda. // Lex.uz elektron ma’lumotlar bazasi.

muddat beradi. Agar ushbu muddat ichida qaror bajarilmasa, majburiy ijro choralari, jumladan ijro yig‘imi va jarimalar qo‘llanilishi boshlanadi.

Ma’muriy sud hujjatlarining o‘ziga xosligi shundaki, ular ko‘pincha mansabdor shaxslarga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki ulardan tiyilish majburiyatini yuklaydi. Mazkur qonunning 71-moddasi ushbu jarayonda majburiy xarakterga ega bo‘lgan huquqiy ta’sir chorasi vazifasini o‘taydi. Unga ko‘ra, agar qarzdor (mansabdor shaxs) belgilangan muddatda sud hujjatini uzrsiz sabablarga ko‘ra ijro etmasa, davlat ijrochisi unga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llaydi va uni jinoiy javobgarlik to‘g‘risida yozma ravishda ogohlantiradi.[6] Bu mexanizm ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksda belgilangan sud jarimasi bilan parallel ravishda ishlovchi kuchli bosim vositasidir.

Shuningdek, ijro samaradorligini oshirishda "protsessual cheklovlar" ham muhim o‘rin tutadi. Qonunning 42-1-moddasiga asosan, sud hujjati asosida berilgan talablar uzrsiz sabablarga ko‘ra ijro etilmaganda, davlat ijrochisi qarzdor jismoniy shaxsning (mansabdor shaxsning) O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashga haqli.[7] Ma’muriy nizo tarafi bo‘lgan mansabdor shaxslarga nisbatan bunday cheklovning qo‘llanilishi, sud hujjatlarining nufuzini oshirishga va ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijro harakatlarining umumiy muddati qonunning 30-moddasiga ko‘ra, ixtiyoriy ijro muddati tugagan kundan boshlab ikki oydan oshmasligi lozim.[8] Biroq, amaliyotda ma’muriy organlar tomonidan ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish yoki kechiktirish haqidagi turli iltimosnomalar kiritilishi natijasida bu muddatlar cho‘zilib ketish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning sud nazorati institutini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.



[6] O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni. 71-modda.

[7] O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni. 42-modda prim 1

[8] O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni. 30-modda.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud qarorlarining ijro holati yuzasidan respublika bo‘yicha tendensiyalar tahlil qilinganda, ijobiy o‘sish bilan birga tizimli muammolar saqlanib qolayotgani kuzatiladi. Taqdim etilgan diagramma (1-rasm) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda chiqarilgan jami hal qiluv qarorlarining 45 foizi ixtiyoriy tartibda ijro etilgan bo‘lsa, 35 foizi Majburiy ijro byurosi organlari orqali amalda bajarilgan.[9]

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, qarorlarning qariyb 15 foizi belgilangan muddatlar jiddiy buzilgan holda ijro etilmoqda, 5 foizi esa turli qonuniy asoslar (ijroni to'xtatib turish, kechiktirish) bilan ijro etilmasdan qolmoqda.[10] Bu ko‘rsatkichlar amaldagi ijro mexanizmlari, xususan, davlat organlari mansabdor shaxslariga nisbatan qo‘llaniladigan protsessual ta'sir choralari hali ham takomillashtirishga muhtojligini tasdiqlaydi.

Bu muommolarning yechimi sifatida, ma’muriy sudlov tizimi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sud qarorlarining ijrosini ta’minlash nafaqat protsessual majburiyat, balki inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas qismidir. Xususan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi o‘zining ko‘plab qarorlarida (masalan, “Hornsby v. Greece” ishi) “sud qarori ijro etilishi inson huquqlari poymol qilinishining oldini olishning yakuniy bosqichi hisoblanadi”, degan g‘oyani ilgari suradi.[11]

Germaniya tajribasida ma’muriy sud hujjatlari ijrosi Ma’muriy sudlov tartibi to‘g‘risidagi qonun (Verwaltungsgerichtsordnung – VwGO) bilan tartibga solinadi. Germaniya qonunchiligining o‘ziga xos jihati shundaki, agar ma’muriy organ sud qarorini bajarmasa, sud unga nisbatan 10 000 yevrogacha bo‘lgan miqdorda majburlov puli (Zwangsgeld) tayinlashi mumkin.[12] Agar ushbu chora ham natija bermasa, sud mansabdor shaxsga nisbatan majburlov qamog‘i (Zwangshaft) chorasini qo‘llash vakolatiga ega. Bu mexanizm ma’muriy organ mansabdor shaxslarining mas’uliyatini keskin oshiradi.

Fransiya ma’muriy huquqida esa “Astrant” (L’astreinte) instituti o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu institutga ko‘ra, agar ma’muriy organ sud tomonidan belgilangan muddatda qarorni ijro etmasa, sud ijro kechikkan har bir kun uchun muayyan miqdorda pul jarimasi hisoblab boradi.[13] Bizning milliy qonunchiligimizdagi bir martalik sud jarimasidan farqli o‘laroq, fransuzcha “astrant” tizimi mansabdor shaxsni qarorni tezroq ijro etishga moddiy jihatdan majbur qiladi. Mazkur jarima miqdori cheklanmagan bo‘lib, qaror ijro etilmaguniga qadar o‘sib boraverishi mumkin, bu esa ijro intizomini so‘zsiz ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ma’muriy sud ishlarini yuritish tizimining haqiqiy kuchi sud tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorining qog‘ozda qolishi bilan emas, balki uning hayotda qay darajada real ijro etilishi bilan belgilanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda sud qarorlari ijrosini ta’minlashda faqatgina Majburiy ijro byurosi va standart jarima mexanizmlariga tayanib qolish o'zini oqlamayotganligi amaliyotda yaqqol namoyon

---

[9] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistika portali. Ma’muriy ishlar bo‘yicha sud amaliyoti ko‘rsatkichlari (2024-yil). // stat.sud.uz.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi. Sud hujjatlari ijrosi samaradorligi tahlili (2024-yil yakunlari). // mib.uz.

[11] Case of Hornsby v. Greece, Judgment of 19 March 1997. Paragraph 40. // European Court of Human Rights. URL: https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-58020

[12] Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO) § 167 - § 172. Enforcement of judicial decisions. // Federal Ministry of Justice of Germany. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/vwgo/index.html

[13] Code de justice administrative. Article L911-1 - L911-3. L'astreinte en droit administratif.//Legifrance.URL:https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006070933/LEGISCTA000006150035/

bo'lmoqda. Davlat organi va oddiy fuqaro o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish uchun ijro bosqichida ham “sudning faol roli” saqlanib qolishi shart.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ijro intizomining pastligi ko‘p hollarda mansabdor shaxslarning protsessual mas’uliyatini his qilmasligi bilan bog‘liqdir. Bir martalik moliyaviy sanksiyalardan ko‘ra, ijro etilmagan har bir kun uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tizimning yo‘qligi jarayonning cho‘zilishiga sabab bo‘lmoqda. Rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya va Fransiya tajribasi shuni tasdiqlaydiki, sud qarorini ijro etmaslik nafaqat moddiy zarar, balki mansabdor shaxsning karyerasi va huquqiy maqomiga ham bevosita ta’sir qilishi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida ta`kidkash joizki, ma’muriy sud hujjatlari ijrosini takomillashtirish uchun qonunchilikka davomiylik kasb etuvchi jarima (astrant) mexanizmini kiritish va ijro ustidan sud nazoratini raqamlashtirish davr talabidir. Faqatgina sud qarori ijrosining muqarrarligi ta’minlangan taqdirdagina, ma’muriy tizim fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini tiklovchi haqiqiy himoya vositasiga aylana oladi.

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2018 (2024-yilgi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO) – Germaniya Federativ Respublikasining Ma’muriy sudlov tartibi to‘g‘risidagi qonuni.
4. Code de justice administrative – Fransiya Ma’muriy adliya kodeksi.
5. Xudayberdiyev A.K. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda sud hujjatlari ijrosining protsessual kafolatlari. // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2025. №4. – B. 12-15.
6. O‘zbekiston Respublikasi MSIYutKni takomillashtirish konsepsiyasi doirasidagi takliflar tahlili. // Sud-huquq islohotlari jurnali. 2025. №2. – B. 45.
7. Brown, L. N., & Bell, J. S. (1998). French Administrative Law. Oxford University Press.
8. Siedentopf, H. (1994). The Enforcement of Administrative Decisions in German Law.
9. Kopp, F. O., & Schenke, W. R. (2022). Verwaltungsgerichtsordnung: Kommentar. C.H. Beck.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. Stat.sud.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistika portali.
3. Mib.uz – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi rasmiy sayti.
4. Hudoc.echr.coe.int – Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining rasmiy qarorlar bazasi (Hornsby v. Greece ishi bo‘yicha).
5. Gesetze-im-internet.de – Germaniya Adliya vazirligining rasmiy qonunchilik portali.
6. Legifrance.gouv.fr – Fransiya hukumatining rasmiy huquqiy axborot portali.